

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**



**BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI
INSTITUTI**

“Menejment” kafedrası

*Ulashev X.A.
Musayeva J. K.*

**“Loyiha tahlili va innovatsion menejment”
fanidan**

**5340200 “Menejment”(sohalar bo'yicha) yo'nalishi
bakalavrlari uchun**

**Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish
bo'yicha**

USLUBIY QO'LLANMA

BUXORO – 2008

«Menejment» kafedrası majlisining «___»_____ 200__ y. № ___ bayoni bilan tasdiqlashga tavsiya qilingan.

Bux OO va YESTI

Uslubiy kengashining

«___»_____ 200__ y. bayoni

bilan tasdiqlangan.

Taqrizchilar:

Buxoro «Bank va iqtisodiyot kolleji»

direktori, dotsent A.B.Nizomov

Bux OO va YESTI «Menejment» kafedrası

dotsenti Asatov R.U.

Bu amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanmada kurs predmeti, metodi, vazifalari hamda korxonalarda iqtisodiy va moliyaviy tahlil nazariyalari va amaliyotlarining asoslari; investitsiya loyihasi samaradorligi tahlili uslublarini; loyihaning moliyaviy holatini baxolash; noaniqlik va xavf-xatar sharoitida loyiha samaradorligini baholash, innovatsion loyihalarni boshqarishning jahon tajribalarini; tarmoqda innovatsion rejalashtirish, ishlab chiqarishga yangiliklarni tadbiq etishni takomillashtirish to'g'risida «Menejment» yo'nalishi talabalari uchun amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun savollar to'plami, testlar va masalalar hamda shu masalalarni echish uchun ko'rsatmalar berilgan.

AMALIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH TARTIBI.

“Loyiha tahlili va innovatsion menejment” fanini o'qitishda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida klaster, insert, aqliy hujum usullari, keys-stadidan foydalanilib, muammoli ta'lim texnologiyalari, “bumerang” texnologiyasi, kabi ilg'or texnologiyalardan foydalaniladi. Ushbu fanni o'qitish pedagogikasining g'oyaviy poydevorini milliy ta'lim taraqqiyoti va milliy kadrlar tayyorlash tizimi istiqbollarini belgilovchi hujjatlar sifatida 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” tashkil etadi.

O'zbekiston kadrlar tayyorlash milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ya'ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash lozimligini ta'kidlaydi. Buning uchun esa bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o'qitishni joriy qilish kerak.

Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ta'limdagi sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo'ladi. Ta'limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo'lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalarga beriladigan ta'lim bir xildir. O'qituvchi bilim emas, balki ta'lim beradi. Talaba esa ana shu ta'lim jarayonida bilimga ega bo'ladi. Buning uchun u mustaqil o'qiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo'ladi, eshitganlari va o'qiganlarini sintez qiladi. Natijada mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantiradi va tafakkur sohibiga aylanadi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi. Ushbu aytilgan g'oyalardan kelib chiqqan holda «Ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish» o'quv kursi bo'yicha ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy kontseptual yondashuvlarni sanab chiqamiz.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondoshuv o'quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratlik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi sub'ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'yektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – yangi komp'yuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

Keltirilgan kontseptual yo'riqlarga asoslangan holda, «Ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish» kursining maqsadi, tuzilmasi, o'quv axborotining mazmuni va hajmidan kelib chiqqan holda, ma'lum sharoit va o'quv rejasida o'rnatilgan vaqt oralig'ida o'qitishni, kommunikatsiyani, axborotni va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullari va vositalari tanlovi amalga oshirildi.

<i>O'qitishning usullari va texnikasi:</i>	ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, pinbord, paradokslar va loyihalar usullari, masalalar echish, amaliy ishlash usuli.
--	--

<i>O'qitishni tashkil etish shakllari:</i>	dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.
--	--

<i>O'qitish vositalari:</i>	o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni, uslubiy qo'llanma) bilan bir qatorda - komp'yuter va axborot texnologiyalari.
-----------------------------	---

<i>Kommunikatsiya usullari:</i>	tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.
---------------------------------	---

Teskari aloqa usullari:

kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari:

o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash:

o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari va yozma ishlar yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. Har bir o'quv mashg'uloti bosqichidagi o'qitish natijalarini (o'quv topshiriqlarni bajarishi va testlarni baholash, har bir o'quv mashg'ulotdagi talabanning o'quv faoliyati reytingini baholash) hamda butun maxsus kurs davomidagi (har bir talabanning joriy, oraliq va yakuniy natijalarini reyting tizimi orqali baholash) natijalarni baholash.


Yangi vosita va usullarni qo'llash:

ta'lim bosqichida komp'yuter va informatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ma'lumotlarni ko'rgazmali shaklda etkazib beradi. Berilgan kontseptual qoidalarga hamda «Ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish» maxsus kursining maqsadi, vazifalari, hajmi va mazmuniga asoslangan holda ta'lim usuli va texnikasi; tashkil qilish shakli; vositasi; kommunikatsiya usullari; berilgan ma'lumotlarni nazorat qilish usul va vositalari; baholash va nazorat qilish tartiblari aniqlandi.

BAHOLASH MEZONLARI

Talabalar bilimini baholashda eng asosiy ko'rsatkich mustaqil fikrlay olish qobiliyati sanaladi. SHu sababli talabanning bilim va malakalarini baholashda dastavval uning mustaqil fikrlash va mushohada yuritish, shu bilan birga mustaqil ravishda xulosa chiqara olish qobiliyatlariga qaratiladi. Talabalar bilimi jadvalda ko'rsatilgan

mezonlar asosida baholanadi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, «qoniqarsiz» bahodan



tashqari boshqa barcha baholarning asosi sifatida talabaning xulqi va odobiga qaraladi.

Yani, talaba fanni yaxshi o'zlashtirgan bo'lsada, uning qoniqarsiz xulqi fundan oladigan bahosiga ta'sir qilishi mumkin. Chunki "Loyiha tahlilil va inovatsion menejment" alohida fan bo'lsada, institutda o'tiladigan qolgan barcha fanlar bilan birgalikda mukammal inson va etuk mutaxassis tayyorlashning ajralmas bir bo'lagidir. Xulqi yomon mutaxassis o'rgangan bilimlarini amalda qo'llash orqali atrofdagilarga ziyon etkazishi mumkin. Yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, mutaxassisning bilimiga yarasha xulqi bo'lmasa, u o'z bilimlarini o'rinli ishlata olmaydi va olgan bilimlarini boshqalarga ziyon etkazish uchun qo'llashi mumkin. Xuddi shunday bilimi past talabaning xulqi yaxshi bo'lgan taqdirda uning bahosi (masalan 0,5 ballga) ko'tarilishi mumkin. Baholashning bunday mezonlarining asosini "Loyiha tahlilil va inovatsion menejment" fanini o'qitish maqsadlari tashkil etadi. "Loyiha tahlilil va inovatsion menejment" fanini o'qitishdan maqsad esa, talabaga ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish borasida ijodiy fikrlay olish hamda mustaqil xulosa chiqarib bilish bilan birga o'z bilimlarini jamiyat farovonligi yo'lida qo'llay olishni o'rgatishdir. Talabalar bilimini baholash uslublari quyidagi jadvalda batafsil ko'rsatib berilgan.

BAHOLASH USLUBLARI

Nazorat turi	Jami ball	Nazorat shakli va ballari
Joriy nazorat 1	20	Davomat 4 Amaliy ishlar 8 Mustaqil ishlar 8
Oraliq nazorat 1	10	YOzma ish.
Joriy nazorat 2	20	Davomat 4 Amaliy ishlar 8 Mustaqil ishlar 8
Oraliq nazorat 2	15	YOzma ish.
Joriy nazorat 3	20	Davomat 4 Amaliy ishlar 8 Mustaqil ishlar 8
YAkuniy nazorat	15	Test. Jami 30 ta savol. Har bir savolga 0.5 ball. Agar yozma ish bo'lsa, har bir variantda 7 ta savol.

Amaliy mashg'ulotlarning tarkibi

«Loyiha tahlili va innovatsion menejment» fanidan amaliy mashg'ulotlar.

1- MAVZU. Loyiha tahlili va innovatsion menejment” fanining predmeti va asosiy vazifalari.

Tayanch iboralar:

Innovatsiya, innovatsiya turkumlari, innovatsion menejment, yangilik, yangilik kiritish, innovatsiya diffuziyasi, innovatsion jarayon, innovatsion menejmentning tashkiliy strukturasi, texnologik tsikl, texnologik zanjir, korporativ samaradorlik ko'effitsienti, innovatsion guruh samaradorligi, texnologik qiymat mezon.

Mavzu bo'yicha nazorat savollar.

1. Innovatsion menejmentning predmeti nima?
2. Innovatsion jarayonining qanday shakllari bor?

3. Innovatsiyani qanday turkumlash mumkin?
4. Texnologik zanjir qancha va qanday zanjirlardan tashkil topgan?
5. Texnologik zanjir qanday tashkil qilinadi?
6. Texnologik jarayon faoliyati qanday nazorat qilinadi?
7. Jami innovatsion guruh samaradorligini qanday aniqlanadi?
8. Texnologik zanjirda “tor joylar” qanday holatlarda vujudga kelishi mumkin?

Testlarni bajaring: (test tarqatma material sifatida talabalarga tarqatiladi):

1.1. _____ - bu texnikaviy taraqqiyotning real hayotga joriy etilishi, yangi mahsulotlar va texnologiyalarda namoyon bo'lish jarayonidir.

- A) investitsiya
- V) innovatsiya
- S) yangilik
- D) lizing

1.2 ITTKI tashkil etish va ushbu faoliyatni takomillashtirish bo'yicha bilim beruvchi fan qanday ataladi?.

- A) menejment
- V) innovatsion menejment
- S) loyiha tahlili
- D) ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish.

1.3. Tahlil so'zining mazmuni:

- A) «tahlil» lotincha so'zdan olinib, «butunni bo'lakchalarga bo'lib o'rganaman» ma'nosini anglatadi;
- V) «tahlil» frantsuzcha so'zdan olinib, «butunni bo'lakchalarga bo'lib o'rganaman» ma'nosini anglatadi;
- S) «tahlil» grekcha so'zdan olinib, «butunni bo'lakchalarga bo'lib o'rganaman» ma'nosini anglatadi;
- D) «tahlil» inglizcha so'zdan olinib, «butunni bo'lakchalarga bo'lib o'rganaman» ma'nosini anglatadi;

1.4. Tahlil fanining predmeti deb:

- A) xo'jaliklarning ishlab chiqarish mablag'laridan foydalanishini o'rganishga aytiladi;
- V) xo'jalik jarayonlarini iqtisodiy manbalardan foydalanib o'rganishga aytiladi;
- S) xo'jaliklarning mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini o'rganishga aytiladi;
- D) xo'jalikning barcha jarayonlaridagi o'zgarish va farqlari sababini o'rganishga aytiladi;

1.5. Korxonalarni boshqarishdagi o'rniga qarab iqtisodiy tahlilning turini belgilang:

- A) boshqaruv (ichki) va moliyaviy (tashqi);
- V) moliyaviy va joriy;
- S) boshqaruv va tezkor;
- D) boshqaruv va istiqbolli;

1.6. Tizimli tahlil nechta bosqichdan iborat?

- A) to'rtta;
- V) beshta;
- S) oltita;
- D) yettita

1.7. Qaysi usullar iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullari bo'lib hisoblanadi?

- A) taqqoslash va iqtisodiy matematik usullar;
- V) zanjirli va balansli bog'lanish, integral usullari;
- S) taqqoslash, guruhlashtirish va nazariy o'yin;
- D) taqqoslash, guruhlashtirish, zanjirli bog'lanish va balans.

2- MAVZU. Loyiha tahlilining iqtisodiy kontseptsiyalari

Tayanch iboralar:

Loyiha tahlilining kontseptsiyalari. Loyiha qiymati. Loyiha tahlilining bo'limlari. Al'ternativ qiymat. Oxirgi tahlil. Foyda va zararni baholash. Loyihaga inflatsiya ta'siri. Diskont koeffitsientining vazifasi. Ikki yoqlama hisoblash. Amortizatsiya.

Nazorat savollari:

1. Loyiha tahlilining kontseptsiyalari, loyiha qiymatini tushuntiring.
2. Loyiha tahlilining vazifalari qaysilar?
3. Loyihaga qo'yiladigan talablarni tushuntiring.
4. Loyiha taxlining ettita bo'limi qaysilar?
5. Iqtisodiy tahlilning asosiy tushunchalarini izohlang: al'ternativ qiymat, foyda va zararlarni taqqoslash.
6. Ikkiyoqlama hisob qanday olib boriladi?
7. Amortizatsiyani izohlash qanday olib boriladi?
8. Real pul oqimi turlarini tushuntiring.
9. Investitsiya loyihalarini tanlash va baholash ekspert marosimini tushuntiring.
10. Baho turlari va ularni aniqlash usullari qaysilar?

Testlarni bajaring: (test tarqatma material sifatida talabalarga tarqatiladi):

2.1. Jahon banki metodikasi bo'yicha loyihaviy tahlil nechta bo'limdan tashkil topgan?

- A). 4.
- V). 5.
- S). 6.
- D) 7.

2.2. Qaysi tahlilda loyihaning joylanishini hisobga olinadi?

- A). Tijorat tahlil.
- V) ekologik tahlil.
- S). Texnik tahlil.

D). Moliyaviy tahlil.

2.3. Loyihaviy tahlil kim tomonidan o'tkaziladi?

A). Kredit oluvchi .

V). Banklar.

S). Auditorlik firmalari.

D). Kredit beruvchi institutlar.

2.4. Al'ternativ qiymatni hisoblashdan asosiy maqsad nima?

A). Foydani aniqlash.

V). Resurslarning ma'lum miqdoridan ma'lum bir yo'nalishda foydalanib, boshqa al'ternativ usullardan ko'proq foyda olishga erishilishidir.

S). Xarajatlarni hisoblash.

D). Rentabellikni hisoblash.

2.5. Oxirgi tahlilni o'tkazishdan asosiy maqsad nima?

A). Foydani aniqlash.

V). Foyda va zararni taqqoslash.

S). Xarajatlarni hisoblash.

D). Rentabellikni hisoblash.

Masalalarni yeching.

1-masala. Investor 4 yilga mo'ljallangan loyihaga va umuman inflyatsiyaning mavjud bo'lmagan va soliq darajasi 12% bo'lgan sharoitda kapital qo'ydi. Bu holda kutilyotgan pul oqimlari hisoblang.

Inflyatsiyani hisobga olmagan holda pul oqimlarini hisoblash.

Jadval № 1.

yil	tushum	Joriy xarajat- lar	Amortiz atsiya	YAlpi foyda 2-3-4	Soliq 5*0, 4	Sof foyda 5-6	Soliq to'langandan keyingi pul oqimi 7+8
1	2	3	4	5	6	7	8
1	4000	2800	400				
2	4000	2800	400				
3	4000	2800	400				
4	4000	2800	400				

Inflyatsiyani hisobga olgan holda pul oqimlarini hisoblash.

Jadval №10

yil	Tushum	Joriy xarajat-lar	Amortizatsiya	YAlpi foyda 2-3-4	Soliq 5*0,4	Sof foyda 5-6	Soliq to'langan dan keyingi pul oqimi 7+8
1	2	3	4	5	6	7	8
1	4000=4000*1,07		400				
2			400				
3			40				
4			400				

YUqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, inflyatsiya darajasi 7% bo'lganda, pul oqimlarining qiymati ham o'sha darajada ko'payib bormoqda. Keyingi bosqichda pul oqimlarining yil bo'yicha real qiymatini hisoblash kerak.

Yillar bo'yicha pul oqimlarining real qiymatini hisoblash.

Jadval № 11.

Real pul oqimi	Yillar			
	1	2	3	4

3- MAVZU. Investitsiya loyihalarini moliyaviy iqtisodiy baholashning uslubiy asoslari. (2soat)

Tayanch iboralar:

Moliya holat. Biznes rejasi. Samaradorlik. Qiymati. Diskont. Diskont koeffitsienti. Daromad. Inflyatsiya. Xarajat. Xarajat turlari.

Mavzu bo'yicha nazorat savollar.

1. Harakatdagi va loyihalashtirilayotgan ob'yektlarning moliyaviy holatining tahlilini tushuntiring.
2. Moliyaviy holat ko'rsatkichlari qaysilar?
3. Biznes – reja loyihaing investitsiya oldi bosqichini tushuntiring.
4. Biznes rejani optimallashtirish usullari qaysilar?
5. Samaradorlikni hisoblashda ijtimoiy echimlarning asosiy turlarini tushuntiring.
6. Pul qiymatini vaqt bo'yicha o'zgarishini hisobga olish usullarini tushuntiring.
7. Investitsiya loyihalarining solishtirma ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?

8. Sof diskont daromad (SDD) qanday aniqlanadi?
9. Daromadning ichki m`yori (DIM) qanday aniqlanadi?
10. Xarajat turlari bo'yicha inflatsiya bashoratini tushuntiring.

Testlarni bajaring: (test tarqatma material sifatida talabalarga tarqatiladi):

3.1. Ushbu ko'rsatkich loyiha amalga oshirilishi natijasida firma boyligi qanchaga ko'payganligini xarakterlaydi.

- A). Investitsiya samaradorligi.
- V). Investitsiyalar rentabellik darajasi.
- S). Sof joriy qiymat.
- D). Ichki foyda me`yori.

3.2. Ushbu ko'rsatkich dastlabki shart-sharoitlar turli kombinatsiyalarda o'zgarmay turishini ko'rsatadi..

- A). Investitsiya samaradorligi.
- V). Investitsiyalar rentabellik darajasi.
- S). Sof joriy qiymat.
- D). Ichki foyda m`yori.

3.3. Ushbu ko'rsatkich qilingan har bir so'm investitsiyaga qanday darajada foyda olinganligi yoki investor boyligi qanchaga ko'payganligini ifodalaydi..

- A). Investitsiya samaradorligi.
- V). Investitsiyalar rentabellik darajasi.
- S). Sof joriy qiymat.
- D). Ichki foyda m`yori.

13.4. Ushbu ko'rsatkich pul tushumlarining diskontlangan qiymati pul chiqimlarining diskontlangan qiymatiga tengligi aniqlaydi.

- A). Investitsiya samaradorligi.
- V). Investitsiyalar rentabellik darajasi.
- S). Sof joriy qiymat.
- D). Ichki foyda me`yori.

Masalalarni yeching.

2-masala.

Agar siz 100 so'm pulni 10 foiz stavka bilan bankka qo'ysangiz kelgusi yili , sizning omonatingiz necha so'mga teng bo'ladi.

$FV1q100Q100*0.1q110$ so'mga teng bo'ladi.

Agar pulingizni yana bir yil olmaysiz deb faraz qiladigan bo'lsak, ikkinchi yilning oxiriga borib sizning omonatingiz:

$$FV_{2q} \{100(1Q_{10})\} * (1Q_{0.10}) \} q_{100} * (1Q_{0.10})^2 q_{100} * 1.21 q_{121} \text{so'm}$$

bo'ladi.

3-masala.

Investor traktor zavodining aktsiyalarini sotib olmoqchi bo'lsin. Zavodning har bir aktsiyasi 10 ming so'mdan taklif qilayotgan va 5 yildan keyin aktsiyalarning bahosi 2 marta oshishi kutilayotgan bo'lsa, shuningdek mablag'ni bank depozitiga qo'yganda 10% daromad olish imkoniyati mavjud bo'lsa, aktsiyalarni sotib olish maqsadga muvofiqmi yoki yo'qmi?

Demak aktsiyalar bahosi 5 yildan so'ng ikki martaga oshadi va 20 ming so'mni tashkil etadi. Joriy qiymatni hisoblash formulasini qo'llab quyidagilarni topamiz:

$$PV_{5q} 20000 * 1 / (1Q_{0.10})^5 q_{20000} * 0.6209 q_{12418} \text{SO'M}$$

Demak 5 yildan so'ng har bir aktsiyaning qiymati 20000 so'mni tashkil etsa, uning bugungi qiymati 12418 so'mga teng bo'lar ekan. YA'ni investor har bir aktsiyani sotib olish uchun 10000 so'mdan emas 12418 so'mdan sarflanganda ham mablag' sarflashning bu varianti bankka mablag' qo'yishdan ko'ra samaraliroqdir. Agar foiz stavkasi 15 foizdan ortiq bo'lsa, mablag'ni bank depozitiga qo'yish samaraliroq bo'lishini xuddi shu usulda hisoblab topish mumkin.


4-masala.

Siz har yilning oxirida 1 mln. so'mdan 3 yil davomida 10 % stavka bilan bankdagi maxsus hisob varag'iga mablag' o'tkazib boringiz. 3 yildan so'ng siz qanday summaga ega bo'lasiz? Birinchi yil o'tkazilgan mln. so'm bankda 2 yil turadi, ikkinchi yil mln. so'm esa bankda 1 yil turadi, uchinchi mln. so'm esa uchinchi yil oxirida o'tkazilgani uchun ham foiz ishlashi nuqtai nazaridan bankda hech muddat turmaydi. Kelgusi qiymatni hisoblash formulasi yordamida har bir o'tkazma uchinchi yil oxiriga qadar qanday miqdorgacha o'sib borishini topamiz va ularni qo'shib shu muddatda qancha miqdordagi mablag'ga ega bo'lishimizni topamiz.

Invesititsiyalarning kelgusidagi qiymati hisob-kitobi

Mablag' o'tkazilgan yil tartib raqami	Foiz daromadi Hisoblanadigan vaqt (yil)	Yillik o'tkazmaning (ajratmaning) kelgusi qiymati (mln. so'm)
1	2	$1,00 * (1Q0,10)2q1,21$
2	1	$1,00 * (1Q0,10)1q1,10$
3	0	$1,00 * (1Q0,10)0q1,00$
Jami	Kelgusi qiymat	3,31

Bu jarayonni grafikda quyidagicha tasvirlash mumkin:



SHunday qilib annuitetning yakuniy summasi quyidagicha topildi:

$$FV3q1.00*(1Q0.10)2Q1.00* (1Q0,1)1Q1.00* (1Q0,01)0q3,31$$

5-masala.

Aytaylik, investitsiya loyihasi kelgusi 3 yilning har bir yili oxirida 1 million so'mdan pul tushumga ega bo'lishni ko'zda tutsin. Foiz stavkasi yiliga 10% bo'lgan sharoitda 2-formula va 4-ilovadan foydalanib. bu pul tushumlarining joriy qiymatini aniqlaymiz. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Annuitetning joriy qiymatini aniqlash

Yillar	Pul tushumlari (mln. so'm)	Joriy qiymat
1	1	$1,0 \cdot [1/(1Q0,1)^1]q0,909$
2	1	$1,0 \cdot [1/(1Q0,1)^2]q0,826$
3	1	$1,0 \cdot [1/(1Q0,1)^3]q0,751$
Jami	Joriy qiymat	2,486

Investitsiya natijasida bunyod bo'lgan ob'yekt necha yil amal qilishga qaramasdan bu hisoblash usulning mazmuni o'zgarmaydi. 2 formulaga asoslangan holda bu hisob kitob quyidagicha o'tkazildi:

$$PVA3q1/(1Q0.10)1Q1/(1Q0.10)2Q1/(1Q0.10)3q2,486$$

6-masala.

Aytaylik, bank depozitida bizning 1 mln, so'm omonatimiz bor va bank bu depozit uchun yillik 60 foiz daromad to'laydi. Demak har yili yanvar oyining booshlarida o'tgan yil uchun hisoblangan 600 ming so'm daromadni bankdan olishimiz mumkin. 11- formuladan foydalanib daromad stavkasi yiliga 60% bo'lganda 600 ming so'm daromad olish uchun qancha miqdorda investitsiya qilishimiz zarurligini topamiz:

$$PVq600000 / 0.60q1000000 \text{ so'm.}$$

Ko'rilgan misol asosida quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: agar bank depozitiga qo'yilgan 1 million so'm yiliga 600 ming so'm daromad keltirsa keyingi yilning boshida 600 ming so'mga teng (yoki undan kam) daromad keltiradigan investitsiya loyihasiga 1 million so'mdan ko'p mablag' ajratish maqsadga muvofiq emas.

7-masala.

Firma 500 million so'mga universal magazin uchun joy, bino sotib oldi. Bu magazindan 10 yil davomida har yili 100 million so'mdan pul tushumlari bo'ladi. O'sha davrda muqobil foyda normasi 10 foiz bo'lsa, shu magazinni sotib olish kerakmi?

8-masala.

Firma yangi «Modellar uyini» 510 million so'mga sotib olmoqchi. SHu davrda muqobil foyda normasi 15 %. Har yili bu korxona 70 million pul tushumlari vujudga keltiradi. Korxonani sotib olish to'g'ri bo'ladimi?

9-masala.

Transport firmasi 40 million so'mga yuk tashish mashinasini sotib olmoqchi. Uni ekspluatatsiya qilish 20 yil davomida yiliga 3.2 million so'm pul tushumlarini keltirish kutilmoqda. Pul tushumlari yil oxirida bo'ladi desak, annuitet holatiga duch kelamizmi.

10-masala.

«Uzqishloqmash» AJ 1 mlrd. so'm yangi ishlab chiqarish liniyasini sotib oldi. Liniyaning xizmat muddati 10 yil. Hisobga ko'ra, bu liniya AJga har yili 200 million so'm qo'shimcha foyda olish imkonini beradi. (soliq va kredit uchun foiz to'lovlarini o'z ichiga olgan). Xizmat muddati tugagandan so'ng liniyani AJ sotishni mo'ljallayapti, ya'ni bu aktivlarning qoldiq qiymati 0ga teng deb olish shart. Investitsiya rentabelligini toping. Soliq stavkasi 40 foiz.

4- MAVZU. Loyihaviy tahlilning metod va usullari. (6 soat)

Tayanch iboralar:

Loyiha tahlilining printsiplari. Loyiha tahlilining metodlari. Daromadning ichki stavkasi. Kapital xarajatlarining qoplash muddati. Loyihaviy tahlilda tavakkalchilik. Loyihaviy tahlilda noaniqlik. Texnik tahlil. Institutsional tahlil. Tijorat tahlili. Ijtimoiy tahlil. ekologik tahlil. Iqtisodiy tahlil.

Mavzu bo'yicha nazorat savollar.

1. Loyiha tahlilida qo'llaniladigan usullar qaysilar?
2. Loyihaviy tahlilda tavakkalchilik va noaniqlikni hisobga olish qanday aniqlanadi?
3. Noaniqlikning turlari va manbaini tushuntiring.

4. Investitsiya xavf xatarlarini tahlil qilish va o'lchash usullarini tushuntiring.
5. Texnik tahlilning mohiyati va maqsadini tushuntiring.
6. Institutsional tahlilning mohiyati va maqsadini tushuntiring.
7. Tijorat tahlilining mohiyati va maqsadini tushuntiring.
8. Ijtimoiy tahlilning mohiyati va maqsadini tushuntiring.
9. Moliyaviy tahlilning mohiyati va maqsadini tushuntiring.
10. ekologik tahlilning mohiyati va maqsadi nimadan iborat?
11. Iqtisodiy tahlilning mohiyati va maqsadi nimadan iborat?

Testlarni bajaring: (test tarqatma material sifatida talabalarga tarqatiladi):

4.1. Qaysi tahlilda loyihaning joylanishini hisobga olinadi?

- A). Tijorat tahlili.
- V). ekologik tahlil.
- S). Texnik tahlil.
- D). Moliyaviy tahlil.

4.2 Qaysi tahlilda tashkilotlarning moliyaviy holati, boshqaruv va ma'muriy imkoniyatlari texnik malaka, moddiy va mehnat resurslariga nisbatan kuchli va kuchsiz tomonlari aniqlanadi?»?

- A). Institutsional tahlil.
- V). ekologik tahlil.
- S). Texnik tahlil.
- D). Moliyaviy tahlil.

4.3. Qaysi tahlilda loyiha taklif qilayotgan mahsulot va xizmat bozorlariga baho beriladi?

- A). Institutsional tahlil.
- V). Tijorat tahlili.
- S). Texnik tahlil.
- D). Moliyaviy tahlil.

4.4. Qaysi tahlilda talabni bashorat qilinishi lozim?

- A) Institutsional tahlil.
- V) Tijorat tahlili.
- S). Texnik tahlil.
- D). Moliyaviy tahlil.

4.5. Qaysi tahlilda mahalliy aholini loyihaga nisbatan qiziqtirish uchun strategiya ishlab chiqildi?

- A). Institutsional tahlil.
- V). Tijorat tahlil.
- S). Ijtimoiy tahlil.
- D). Moliyaviy tahlil.

4.6. _____ asosiy vazifasi, loyihada tabiatga etkaziladigan potentsial zararni aniqlash va ushbu zararni kamaytirish va bartaraf qilish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqishdir

- A). Institutsional tahlil.
- V). ekologik tahlil.
- S). Ijtimoiy tahlil.
- D). Moliyaviy tahlil.

4.7. Qaysi tahlilda loyihaning joylanishini hisobga olinadi?

- A). Tijorat tahlil.
- V). ekologik tahlil.
- S). Texnik tahlil.
- D). Moliyaviy tahlil.

4.8. Qaysi tahlilda loyiha taklif qilayotgan mahsulot va hizmat bozorlariga baho beriladi?.

- A). Institutsional tahlil.
- V). Tijorat tahlil.
- S). Texnik tahlil.
- D). Moliyaviy tahlil.

4.9. Qaysi tahlilda talab bashorat qilinishi lozim?

- A). Institutsional tahlil.
- V). Tijorat tahlil.
- S). Texnik tahlil.
- D) Moliyaviy tahlil.

4.10. Qaysi tahlilda qo'shni davlatlar bilan tuzilgan halqaro shartnomalar tahlil qilinadi?

- A). Institutsional tahlil.
- V). ekologik tahlil.
- S). Ijtimoiy tahlil.
- D). moliyaviy tahlil.

Masalalarni yyeching.

11-masala.

YAngi texnologiyaning qiymati 30 ming so'm. Xizmat muddati 5 yil. Diskontlash stavkasi 10 %. 1 yilgi joriy xarajatlar 10200 so'm va keyingi yillardagi har yili 4 % dan oshib boradi. Sof stavka 40 %. Mahsulot tushgan tushum to'g'risidagi ma'lumotlar jadvalda berilgan.

No	Ko'rsatkichlar	I	II	III	IV	V
1	Mahsulot sotishdan tushum	20400	22200	24100	24800	20600
2	Joriy xarajatlar	10200	1060	11032	11473	11932
3	Amortizatsiya	6000	6000	6000	6000	6000

4	Soliqqa tortiladigan foyda	4020	5692	7557	7327	2667
5	Foyda solig'i	1680	2276	3023	2930	1067
6	Sof foyda	2520	3415	4534	4396	1600
7	Pul tushumlari	8520	9415	10534	10396	7600

12-masala.

Korxonani investitsiya loyihasiga asosan loyiha davri 5 yilga teng bo'lib, kutilayotgan pul tushumlari quyidagi miqdorga teng:

Agar investitsiyadan olinadigan daromad (10%) bo'lsa, siz investitsiyani qanday baholagan bo'lardingiz. Jadvaldagi ko'rsatkichlarni hisoblab xulosa qiling.

Izoh: Soliq stavkasi 35% ga teng, soliq va kredit to'lovlaridan oldingi foyda 3 million so'mga teng, yil boshidagi kapital 4 va oxiridagi kapital 0.5 million so'mga teng.

13-masala.

Yangi korxonani ochish uchun sizga 2.5 mln. so'm investitsiya kerak. Loyihadan kutilayotgan daromad va investitsiya xarajatlari quyidagi jadvalda berilgan.

Agar k-10% bo'lsa, loyihani tahlil qiling va xulosani yozing.

Izoh. Soliq stavkasi 35% teng, Soliq va kredit to'lovlaridan oldingi foyda 3.5 million so'mga teng, yil boshidagi kapital 3 million va oxiridagi kapital 0.5 million so'mga teng

5- MAVZU. Loyihalarni tayyorlash. (2soat)

Tayanch iboralar:

Loyiha davri, vazifalarni aniqlash, loyihalarni ishlab chiqarish, ekspertiza, muloqot.

Nazorat savollari:

1. «Loyiha davri» tushunchasining mohiyati va bosqichlarini tushuntiring.
2. Loyihaning «vazifalarni aniqlash» bosqichini izohlab bering.
3. «Loyihalarni ishlab chiqarish» bosqichini tushuntiring.
4. Loyihaning «Ekspertiza» bosqichini tushuntiring.
5. Loyihaning «muloqot» bosqichini izohlab bering
6. Loyihaning amalga oshirish bosqichini tushuntiring.
7. Loyihaning «so'nggi baholash» bosqichini izohlang.

Testlarni bajaring: (test tarqatma material sifatida talabalarga tarqatiladi):

5.1. _____ tushunchasiga uni ishlab chiqarish va amalga oshirish bosqichlari kiradi

- A). Loyiha tsikli
- V). Loyiha davomiyligi.
- S). Loyiha davri.
- D). Loyiha vaqti.

5.2. Loyiha davrining qaysi bosqichida turli variantlardan eng samaralisini tanlash amalga oshiriladi?

- A). Vazifalarni aniqlash
- V). Loyihani ishlab chiqarish.
- S). Loyihani amalga oshirish.
- D). ekspertiza.

5.3. Loyiha davrining qaysi bosqichida loyihani amalga oshirishga doir barcha jismoniy va iqtisodiy ma`lumotlar to'plangan bo'lishi lozim?.

- A). Vazifalarni aniqlash
- V.) Loyihani ishlab chiqarish.
- S). Loyihani amalga oshirish.
- D). ekspertiza.

5.4. ekspertiza bosqichining qaysi aspektida kontraktlar tuzish tartibi, materiallarni sotib olish mexanizmi tahlil qilinadi?

- A). Texnik
- V). Tijorat.
- S). Moliyaviy
- D). Ijtimoiy.

5.5. ekspertiza bosqichining qaysi aspektida loyihaning milliy byudjetga ta`siri aniqlanadi?

- A). texnik
- V). tijorat.
- S). moliyaviy
- D). ijtimoiy.

5.6. ekspertiza bosqichining qaysi aspektida loyiha aloqador bo'lgan hamma tomonlarning (tashkilot, xom-ashyo etkazuvchilar, moliyachilar va hokazo) huquq va ma`suliyat o'zaro taqsimlanadi?.

- A). texnik
- V). institutsional
- S). loyihani amalga oshirish.
- D). ijtimoiy.

5.7. Loyiha davrining qaysi bosqichida, loyihani rejalashtirish va uni ishlatishda ishtirok etayotgan barcha tomonlarning va loyiha natijalaridan foydalanuvchilarning fikrlariga katta e`tibor berish lozim.

- A). Vazifalarni aniqlash
- V). Loyihani ishlab chiqarish.
- S). Loyihani amalga oshirish.
- D). ekspertiza.

5.8. Loyiha davrining qaysi bosqichida loyihani amalga oshirishga doir barcha jismoniy va iqtisodiy ma'lumotlar to'plangan bo'lishi lozim?.

- A). Vazifalarni aniqlash
- V). Loyihani ishlab chiqarish.
- S). Loyihani amalga oshirish.
